# BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONIDA MATN USTIDA ISHLASH ORQALI O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISH

**Saydullayeva Nozima**
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
**Abdusamatova Farida Baxtiyor qizi**
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** ushbu tezisda boshlang‘ich sinflarda matn ustida ishlash orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ravon va ongli o‘qish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi va nutqi, erkin fikrlash qobiliyati rivojlantirilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, nutq, tafakkur, matn, ijodiylik, matn yaratish, matn ustida ishlash, erkin fikrlash.

**Abstract:** in this thesis, information is given about the development of fluent and conscious reading skills of primary school students and the development of speech and free thinking skills by working on the text in primary grades.

**Key words:** primary education, speech, thinking, text, creativity, creating a text, working on a text, free thinking.

Matn nutqiy hodisa bo‘lib, u ikki va undan ortiq gapning mazmuniy birikishidir. O‘z tuzilishiga ko‘ra gap xat boshi, bo‘lim qism, boblardan tashkil topadi. O‘quvchilari tomonidan yaratilgan matnlar asosan gap, xat boshi va qismdan iborat bo‘ladi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida bosqichma-bosqich tarzda matn yozish va o‘qish o‘rgatib boriladi.

Matn ustida ishlashga o‘quvchilarni jalb qilish o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiluvchi pedagogik jarayon sanaladi. Har qanday pedagogik jarayon kabi boshlang‘ich sinflarda matn ustida ishlashda ham muayyan psixologik, pedagogik, metodik talablar inobatga olinishi zarur. Shundagina boshlang‘ich sinf o‘quvchilari matn bilan ishlash orqali muayyan bilimlarni o‘zlashtiradi, ravon va ongli o‘qish ko‘nikma-malakalariga ega bo‘ladi, nutqi boyiydi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi, o‘zgaradi. O‘quvchilar qanchalik ko‘p matn o‘qisa, shunchalik so‘z boyligi, matnning ma’nosini tushunish orqali dunyoqarashi va fikrlashi o‘zgaradi. O‘quvchilarini ijodiy fikrlashga yo‘naltirish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining asosiy vazifalardan hisoblanadi. O‘quvchilarida ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, tushunarli va ta’sirchan, chiroyli so‘zlash, mavjud imkoniyatlardan eng maqbulini tanlash, tilimizning boy imkoniyatlaridan nutq sharoitiga qarab to‘g‘ri, o‘rinli va samarali foydalanish malaka va ko‘nikmalarini singdirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an’analarimiz ruhida tarbiyalashda ona tilining tutgan o‘rni va imkoniyatlari benihoya kattadir. Darhaqiqat, ona tili orqali o‘quvchilarida ijodiylik, mustaqil fikrlash, fikr mahsuli og‘zaki va yozma shakllarda tog‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish lozim. Mashg‘ulotlarida asosiy e’tibor o‘quvchilarga tilning grammatik qurilishini emas, balki ularning so‘z boyligini oshirish, so‘zdan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish, fikrini sharoitiga mos ravishda ifodalay olish ko‘nikmalarini kengaytirishga qaratishimiz zarur. A.Hamroyev ta’kidlaganidek, ona tili ta’limiga kognitivpragmatik usul elementlarini kiritish

o‘quvchilar tafakkuri va mustaqil fikrlash layoqatlarini o‘stirish, ta’lim jarayoni samaradorligi bolalar o‘zlashtirishining sifatini yaxshilashga olib keladi.

O‘quvchining bunday nutqi uzundan-uzun jumlalardan ortiqcha so‘zlardan xoli bo‘lishiga, nutq yaratilayotgan paytda o‘quvchining so‘zlovilarga nisbatan qanday turishga, qo‘l, ko‘z, bosh, bo‘yin, oyoq harakatlariga alohida e’tibor berish kerak. Nutq sharoitining muxim tarkibiy qismlaridan biri so‘zlovchining tinglovchilar saviyasini hisobga olishidir. Bu nutqning eng zaruriy tarkibiy qismlaridan biridir. Xalqimiz bunga juda katta e’tibor bergan. Shuning uchun “So‘zim aytgin uqqancha”-kabi maqollarda xam nutqning tinglovchilarga tushunarli qilib bayon etish zaruriyati ta'kidlangan. Tinglovchilarning saviyasini hisobga olish faqat nutq taqdirini emas, balki notiq taqdirini ham hal qiladi. Shuning uchun o‘quvchilarda o‘z fikrini tinglovchining saviyasini, yoshi, mavqeini hisobga olgan holda bayon qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor berish kerak. Buning uchun o‘quvchilar bilan ayni bir fikrni, o‘quvchilarga o‘zidan kichiklarga, tengqurlarga, o‘zidan kattalarga “yaqinlarga, yaqindan tanish bo‘lmagan shxslarga ifodalash ustida muntazam ish olib borishga to‘g‘ri keladi. Bolalarni maktublar yozishga o‘rgatish, ayni bir fikrni turli kishilarga turli xilda bayon etish ko‘nikmalarini shakllantirishga samarali ko‘nikmalarini shakllantirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Ona tili darsliklari so‘zga ehtiyoj hosil qiladigan, so‘z boyligini oshiradigan o‘quv-topshiriqlariga, matnlarga boy bo‘lishi, leksikologiya har bir til sathining tarkibiy qismiga aylantirilishi lozim va zarurdir, har bir dars matn tahlili bilan boshlanib, matn yaratish bilan tugallansagina, ona tili ta’minining bosh maqsadga erishgan, o‘quvchilarning nutqiy taraqqiyotini ta’minlagan, ularni nutq sharoitiga mos ravishda go‘zal ixcham va ravon so‘zlashga o‘rgatgan, so‘z san’ati ilmiy bilan tanishtirgan bo‘lamiz. Matn ustida ishlash boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirishning eng ma’qul usullaridan biri hisoblanadi. Buning uchun ularning og‘zaki va yozma nutqlarini baravar rivojlantirib borish kerak. Biror asar matn ustida ishlashda ham bu talablarni unutmaslik lozim. O‘quvchilarda ijodiy fikrlash va ijodiy matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishga oid tashkiliy-metodik ishlarni asosan o‘tilgan darsni mustahkamlash jarayonida, shuningdek, uy vazifalari bajarishga yo‘llanma berish davrida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Matn yaratishga o‘rgatish orqali o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikma va malakalarini oshirish ona tili mashg‘ulotlarida ko‘zlanadigan bosh maqsad bo‘lib, u so‘z ustida ishlash, gap ustida ishlash va matn ustida ishlash orqali amalga oshiriladi.

Qanday nutqni yaxshi nutq deb atash mumkin? O‘quvchi nutqiga qanday talablar qo‘yiladi? Bu savollarga javob topmay turib bolalar nutqining boshqa muammolari xaida fikr yuritish qiyin. O‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri nutqning nutq sharoitiga mosligidir. Nutq sharoiti deganda nutq yaratilayotgan paytda so‘zlovchi va tinglovchining sharoiti tushniladi. Bu sharoit bexad ko‘p tarkibli, serqirra bo‘lib so‘zlovchi va tinglovchini nutq paytida qurshab turgan barcha narsa, buyum, holatlardan tortib, ularning bilim saviyasi, kasb-kori, so‘zlovchining maqsadi va imkoniyatlrigacha bshlagn barcha narsalarni o‘z ichiga oladi. Nutq sharoiti nutq shaklini belgilashda juda muhim omildir. Chunonchi, bir-biridan uzoq turgan so‘zlovich va tinglovchi faqat yozma nutq (xat. Maktub, axborot, voqeanavislik va h.k.) vositasida fikr almashtira oladi. Tabiiyki, bu nutqning o‘ziga xos xususiyatlari bor. Bir-biriga yaqin turgan so‘zlovchi va tinglovchi orasida fikr almashishning eng qulay yo‘li og‘zaki nutqdir. Og‘zaki va yozma nutqning o‘z nutq sharoitlariga yarasha xilma-xil xususiyatlari bor. Chunonchi, so‘zlovchi ko‘p bo‘lsa, so‘zlovchining baland ovozda to‘xtamlarga rioya qilib, imo-ishoralardan kamroq foydalanib, fikrini izchil va birbiriga bog‘liq ravishda bayon qilishi talab etiladi. Bunday nutqning o‘ziga xos ko‘rinishi, o‘quvchining masalalarini yoritish yoki uy topshiriqlarini bajarish jarayonidagi javoblarida ma’lum bir mavzuni sinfda, biror yig‘inda ochib berishdagi nutqida o‘z aksini topadi. Shuning uchun bunday nutqda fikr izchilligi, gaplarning o‘zaro to‘g‘ri bog‘lanishi, bog‘lovchilar, olmoshlar, soxa atamalari, iboralar, ovoz tembri, ohang kabilarni to‘g‘ri qo‘llashga alohida e'tibor berish lozim. O‘quvchining bunday nutqi uzundan-uzun jumslalardan ortiqcha so‘zlardan xoli bo‘lishiga, nutq yaratilayotgan paytda o‘quvchining so‘zlovilarga nisbatan qanday turishga, qo‘l, ko‘z, bosh, bo‘yin, oyoq harakatlariga alohida e'tibor berish kerak. Nutq

sharoitining muhim tarkibiy qismlaridan biri so‘zlovchining tinglovchilar saviyasini hisobga olishidir.

O‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan talablardan biri uning aniq bo‘lishidir. Nutqning aniqligi bu farqat narsa, voqea-hodisani tasvirlash yoki bayon qilish emas, balki shu narsa, voqea-hodisa uchun xos bo‘lgan belgilarini aniqlash, ularning tasviriga mos tushadigan so‘z, so‘z birikmalari, iboralarva gaplar tunlashdan xam iboratdir. Aniqlik nutqning boyligi va rng-barangligi bilan chambarchas bog‘liq. Ma'lum bir mazmunn turli shakllarda bila berish, nutq sharoitiga mos tushadigan tasvir usulini tanlash nutqqa aniqlik kiritadi.

Ohangdorlik ham o‘quvchi nutqiga qo‘shiladigan muhim talablardan biridir. Ohang o‘quvchi nutqining ta’sirchanligini oshirish vositalaridan biridir. Shuning uchun she’riy asarlar, nasriy parchalarni ohangdorlikka amal qilgan holda o‘qiy olish malkasi ham o‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan asosiy talablardan bri hisoblanadi. U ohang yordamida nutqni sintegmalarga bo‘ladi. Mantiqiy urg‘uni o‘rinli qo‘llaydi.

Nutqqa qo‘yiladigan yana bir muhim talab uning soddaligi va sofligidir. Sodda nutq avvalo, tushunarli bo‘ladi.

Nutqning tushunarli bo‘lishi bir tomondan fikrni lo‘nda, aniq bayon qilishi, tushunarli bo‘lmagan g‘aliz jumlalardan saqlanishda namoyon bo‘lsa, ikkinchi tomondan tinglovchining tayyorgarlik darajsiga ham bog‘liqdir. Demak, o‘quvchi fikrni xam sodda xam ravon bayon qilishi o‘zgalar fikrinng moxiyatini anglab, uni tushunish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Nutqning sofligi avvalo uning tozaligi demakdir. Ma'lumki, o‘quvchilar nutqida xar xil qaytariqlar, ortiqcha jumlalar, o‘zbek tiliga xos bo‘lmagan gap, so‘zlar anchagina qismini tashkil etadi, ular nutqining bunday so‘zlardan tozalab borish, fikrni sof adabiy tilda, uning boy imkoniyatlaridan foydalanib bayon qilish ona tili mshg‘ulotlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Nutqni egallash jarayoni bola tafakkurining o‘sishi bilan chambarchas bog‘liq holda yuz beradi. O‘quvchi o‘z fikrini ifoda etishda til unsurlari(elementlari)ni o‘zlashtirish davomida atrof-olamni his qila boshlaydi, borliqni bilib oladi. Bola ongida til vositalari yordamida aks ettirgan tushunchalar shakllana boradi. Bu holat bolaning faqat ona tilida fikrlashi, idrok etishi asosida ro‘y beradi. O‘quvchi aloqa-aralashuv davomida til unsurlarini egallay borar ekan, ular tilning murakkab hodisalariga duch kela boshlaydi. O‘quvchilar til hodisalarining shakli va mazmuni haqida mulohazalar yurita boshlaydi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflardayoq o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘zaro nutqiy bog‘liqlikni o‘strib boradilar, ijodiylik, tafakkur, mustaqil fikrlash ko‘nikmalari shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sobirova M. Matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchi so‘z boyligini oshirish. Til va adabiyot ta’limi. Toshkent. 1-son. 38 b.

2. G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodikasi. Toshkent. O‘qituvchi. 1992. 326 b.

3. Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi.Toshkent: O‘qituvchi.

4. Ashrapova T. va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. T. «O‘qituvchi», 2020-yil. 102103-betlar.

5. L. O‘rinboyeva (va boshqalar). 2-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi –Toshkent Respublika ta’lim markazi.

6. Umarova M. O‘qish kitobi. 3-sinflar uchun darslik. –Toshkent: Yangi asr avlodi. 2019-yil.

7. Shojalilov A. va boshqalar. O‘qish kitobi. 4-sinflar uchun darslik. –Toshkent: O‘qituvchi, 2020